

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 13 530,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>11 553,9</b>	<b>13 530,5</b>	<b>106,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 310,6	13 194,6	105,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	243,3	335,9	107,6
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>11 310,6</b>	<b>13 194,6</b>	<b>105,9</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 440,0</b>	<b>6 264,7</b>	<b>104,5</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 714,8</b>	<b>1 969,9</b>	<b>105,5</b>
	sanoat	717,4	837,0	105,6

		Mrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	997,4	1 132,9	105,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>4 155,8</b>	<b>4 960,0</b>	<b>108,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	917,1	1 093,8	107,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	435,2	578,2	120,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 803,5	3 288,0	106,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 022,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 47,5 % ni, sanoat tarmog‘i 6,3 % ni, qurilish 8,6 % ni va xizmatlar sohasi 37,6 % ni tashkil qildi.




## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,9	97,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,5
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>48,1</b>	<b>47,5</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>15,1</b>	<b>14,9</b>
	sanoat	6,3	6,3
	qurilish	8,8	8,6
	<b>Xizmatlar</b>	<b>36,8</b>	<b>37,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,1	8,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,8	4,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,9	24,9




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,5 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 47,5 %), sanoatda – 105,6 % (6,3 %), qurilishda – 105,5 % (8,6 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (37,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,3 % (8,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,4 % (4,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,3 % dan (24,9 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,3 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yilning yanvar-iyun oylarida  
YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,5 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar va sanoat sohasida 110,5 % hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,2 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 77,0 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 76,9 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.